

UMUM TA'LIM MAKtablarda MAHALLIY JOY NOMLARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Shermatova Dildora Mixliboyevna

Annotatsiya: *Ushbu maqoalda umumta'lism maktablari dars jarayonida joy nomlarini qo'llash orqali o'qitish va tarbiya dars samaraliligini oshrishda, o'quvchilarni har tomonlama to'liq va mustahkam bilim olishlariga katta imkoniyat berishi xususida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: Joy, tuman, shahar, geografiya ta'limi, fanlararo aloqa, ta'lim, predmet, dars, adabiyot.

Mahalliy geografik terminlar xalqning milliy-ma'naviy qadriyatlarining ajralmas tarkibiy qismi bo`lishi bilan birga, joy nomlari yasashda qatnashadigan asosiy tarkibiy qismi ham sanaladi. Xalqning ma'naviy boyligi hisoblangan mahalliy geografik terminlarni har tomonlama chuqur, ilmiy asosda tadqiq etish muhim va dolzarb masala hisoblanadi. Geografik nomlar geografiyaning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Ulardan geografiyada beriladigan ma'lumotlarni hududiy bog`lashda foydalaniлади. Geografiyada biror hodisa yoki voqeani tushuntirmoqchi bo`linsa, albatta joy nomi bilan bog`lanadi. Geografik qonuniyatlarni geografik ob`ekt nomisiz tushuntirib bo`lmaydi.

Umuman, geografiyada joy yoki geografik obekt nomi bog`lanmasdan bilim berish mumkin emas. Ikki joy tabiatini qiyoslash uchun ham joylar nomini bilish kerak. Umuman o'quvchilarning xaritani bilishi, joy nomlarini qanchalik darajada bilishi bilan belgilanadi.

Biroq geografik nomlar, ayniqsa chet el geografik nomlari bolalarga tushunarsiz, ularni eslab qolish u yoqda tursin hatto talaffuz qilish ham juda qiyin. Bunday nomlarni o'quvchilar eslab qolishlari uchun ularning ma'nosini tushuntirib berish juda muhimdir. Chunki tushunarsiz so`zlarni eslab qolishdan ko`ra tushunarli so`zni, hatto so`z birikmasini eslab qolish osonroqdir.

Geografik nomlarni chuqur tushunishga mahalliy geografik terminlarni (atamalarni) o'rganish yordam beradi. Mahalliy geografik terminlarni tushunish o'quvchilarga atrof muhitni ongli bilib olishga yordam beradi. Bu esa o'z o'lkasiga, vatanga muhabbatni tarbiyalaydi.

Geografik nomlarni maktabda o'rganishda o'quvchilarning nomlarni to`g`ri yozishni va to`g`ri talaffuz qilishni bilib olishlariga erishish zarur. Bu talabning ahamiyati shundaki, geografik nomlarni to`g`ri yozish o'quvchilar savodxonligini muhim qismi hisoblanadi, nomlarni to`g`ri talaffuz qilish esa nutq madaniyatini o`stiradi.

Geografik nomlarning tarbiyaviy, ilmiy ahamiyati ham juda katta. Mamlakat siyosiy hayotida ro`y berayotgan o`zgarishlar uning xaritasida aks etib turadi. Mamlakatimiz O`zbekiston istiqlolga erishgandan keyin uning xaritasida ham o`zgarishlar bo`ldi. Shoholar davrida paydo bo`lgan, o'sha vaqtning siyosatini ifodalovchi geografik nomlar o`zgardi. Istiqlolni, milliy qadriyatni ulug`lovchi geografik nomlar vujudga keldi. Mamlakatimiz tabiatni, xalqimiz kasb - hunari, milliy an'analar, qadriyatlarimiz bilan bog`liq nomlar tiklandi. Istiqlol, Mustaqillik maydoni, Amir Temur hiyoboni, Mirzo Ulug`bek tumani, Bobur bog`i, Alisher Navoiy bog`i,

Mirobod, Muzrabot tumanlari shular jumlasidandir. Dunyoda ro`y beradigan siyosiy o`zgarishlar xaritada, binobarin, geografik nomlarda ham o`z aksini topadi.

Geografik nomlarda yerni geografik o`rganish tarixi ham aks etadi. Yangi erlarni ochgan, o`rgangan ko`pchilik sayyoohlar, dengizchilar, tadqiqotchilar nomlari geografik xaritalardan mustahkam o`rin olgan. Ko`pchilik geografik nomlar tabiiy sharoitni (er yuzasi relefini, o`simliklar va hayvonot dunyosini, tabiiy hodisa va voqealarini), aholining urf - odatlari, xo`jaligini aks ettiradi. Geografik nomlar asrlar davomida saqlanishini nazarda tutsak, ularni o`tgan zamon tabiatini, ro`y bergen hodisa, voqealar, kishilarning tarixiy kasb - korligi, urf - odatlari, aholining migratsiyasi haqida qimmatli ma'lumotlar olish mumkin.

Geografik nomlarni o`rganish, o`qitishda predmetlararo aloqalarda ham qo`l keladi. Geografiya o`qitishda ona tili, chet el toponimlarini o`rganishda chet tillari bilan bog`lanish yaxshi natija beradi. Ayrim geografik nomlarning joylashishi va ma'nosini tarixiy voqealar bilan bog`langan. Bu esa geografiyaning tarix fani bilan aloqasini mustahkamlashga imkon beradi. Geografik nomlarning ma'nosini yaxshi bilish chet tillarini o`rganishga ham yordam beradi.

Ma'lumki, har bir joyning geografik nomlarini o`rganish ma'lumotlar to`plashdan boshlanadi. Geografik nomlar haqidagi ma'lumotlar bevosita joyda, o`rganilayotgan hududda yig`iladi. Kerakli ma'lumotlarni yana xaritalardan, turli xil ma'lumotlardan, badiiy, tarixiy adabiyotlardan, shuningdek davlat arxivlaridan olinadi. Ilmiy sayohatlar vaqtida aholidan, xususan qariyalardan so`rab o`rganish ma'lumot to`plashda katta yordam beradi. Ma'lumotlar qanday manbalardan to`plangan bo`lishidan qat'iy nazar, to`g`ri bo`lishi kerak. Joyda ma'lumot yig`ish vaqtida hamma nomlarni, shu jumladan juda kichik geografik ob'ektlar nomlarini ham yozib borish kerak. Geografik nomlar tushunarli bo`lsa ham, tushunarsiz bo`lsa ham, o`zbekcha bo`ladimi, boshqa tilda bo`ladimi baribir yozib olish zarur. Yozuv o`zbek tili qoidalariga mos bo`lishi kerak.

Joy nomlarini o`rganishni har bir nom uchun kartoteka tuzishdan boshlash zarur. Har bir nomni o`rganganda va ma'lumot to`plaganda muayyan tartibdagi savollar tuzilishi va nomlarni dastlabki o`rganish ana shu savollarga javob tayyorlashdan iborat bo`lishi kerak.

Bu savollar quyidagilar:

1. Mazkur nom qanday ob'ektga tegishli: qishloq, shahar, tog`, daryo, ko`l, ko`cha, ovul, mahalla, guzar, buloq, jar va h.k.
2. Geografik ob'ektning boshqa nomi ham bormi, bo`lsa ilgarigi nomi qanday atalgan, qachon, nega o`zgartirilgan?
3. Bu nom qachondan beri mavjud?
4. Yaqin atrofda yana shu nomda boshqa ob'ektlar (daryo, ko`l, jar, qishloq va boshqalar) bormi?
5. Mahalliy aholi joy nomi ma'nosini qanday izohlaydi?
6. Mahalliy aholining joy nomi haqidagi fikri siz yiqqan ma'lumotlarga to`g`ri keladimi?
7. Joy nomida mahalliy tabiiy xususiyatlar qanchalik aks etgan.

Kartochkalar tayyor bo`lganidan keyin geografik nomlarni alifbo bo`yicha tartibga solib, lug`at tayyorlash yoki nomlarning turlariga qarab (oronim, gidronim, etnonim, diniy nomlar va h.k.), guruhlarga ajratish ham mumkin. Agar, toponimik ma'lumotlar yuqorida bayon etilgan talablar hisobga olinib, to`g`ri to`plangan bo`lsa katta ilmiy ahamiyat kasb etadi. Mahalliy geografik terminlar (atamalarni) o`rganishda

ham har bir termin uchun kartochka to`ldirib borish juda yaxshi natija beradi. Har bir hudud toponimiyasini (joy nomlarini) tadqiq qilishda mahalliy terminlar haqidagi ma'lumotlar juda zarur. Chunki ko`p joy nomlari asosini terminlar tashkil etadi.

Geografiya ta'limi o`quvchilarda Er haqidagi ilmiy dunyoqarashni shakllantiradi, sotsial – iqtisodiy bilimlarni tarkib topdiradi, dunyo davlatlari va turli regionlardagi jamiyat va tabiatning o`zaro bog`liqligi, geografik ob'ekt jarayon va hodisalar haqidagi bilim va tushunchalar bilan qurollantiradi. Dunyo tabiiy manzarasi bilan bog`liq umuminsoniy madaniyatning tarkibiy qismi bo`lgan geografik madaniyatni tarbiyalaydi.

Qaerda qanday geografik ob'ekt joylashgan, ular bir biriga nisbatan qanday o`rinda ekanligini o`rganish orqali - har bir obn'ektning o`z atoqli oti, ob'ektning xususiyatini ifodalovchi hodisa va jarayonlarning maxsus geografik terminlardan iborat ekanligi va uning mohiyatini o`quvchi bilib oladi. Qaerda qanday joylashuv ob'ektning nomi mazmuni va terminlar ta'rifini bilish geografik bilim va geografik dunyoqarash hisoblanadi. Shuning uchun ham “Maktab geografiyasini qayta qurishning ilmiy, uslubiy kontseptsiyasi” ning ta'lim mazmuning majburiy minimumida

- geografiyaning nazariy asoslari
- geografik tadqiqot metodlari
- tabiiy va iqtisodiy ob'ektlar
- hodisa va jarayonlar
- olamni idrok etishning moddiy va ma'naviy madaniyatga ifodalanishi

- hudud geografik tavsifining tuzilishi kabi olti yo`nalish ko`rsatilgan bo`lib bulardan; tabiiy va iqtisodiy ob'ektlarda toponimikani bilish, hodisa va jarayonlar bo`limida - geografik terminlarni o`rganish talab etiladi. Geografik ob'ektlar nomi va joylashuvini xaritadan ko`rsata olish, muayyan jarayon va hodisalarning mohiyatini ifodalovchi terminning mazmunini ta'riflay olish - bu toonimika va geografik terminshunoslik mazmunidagi ta'limiy ishdir. Har qanday geografik nomni bilishda bиринчи va asosiy vazifa ob'ektning shu xildagi ob'ektlardan alohida ajratilishi va nomlanishida namoyon bo`ladi. Ob'ekt nomidan foydalanim og`zaki va yozma nutqda ushbu toponimning biror bir predmet yoki hodisa bilan bog`lash imkoniyati paydo bo`ladi. Nomlar ayni shu ob'ektning shu singari boshqa ob'ektlarga nibatan hududiy joylashishi boshqalari bilan hududiy bog`liqligi hamda geografik hodisa va jarayonlarni ob'ekt bilan bog`lashga yordam beradi. Ta'lim mazmuning majburiy minimumida o`quvchilar egallashi shart bo`lgan ko`nikma va malakalar - aytar, (ko`rsata) olish, aniqlay (o`lchay) olish, tasvirlay olish tushuntira olish va bashorat qila olish kabi ko`rsatkichlar vositasida ifodalangan bular asosan ob'ektni xaritadan ko`rsata olish va uning hususiyatini tariflay olish toponimika va geografik terminlarni bilish bilan bog`liq ekanligi ko`pchilikka ayon. Nomning hududiy o`rnini belgilash natijasida yangi nomlar yasaladi. Chunonchi , Sibir - G`arbiy Sibir pasttekisligi O`rta Sibir yassi tog`ligi shimoliy orollari, namlik hududiy doirasini aniqlash geologik geografik ifodalar, ilmiy atamalr yasash uchun qulaylik yaratadi. Baykal burmalanishi – perm davri, Toshkent geologik asri, Qo`qon shamoli Tyanshan sirtlari, Sibir antitsikloni, Enesiy kryaji, Aldan qalqoni va hokazo.

Avstraliya - janubiy er, Grenlandiya - yashil er, Islandiya - muzloq er, Missisipi - katta suv, Himolay - qorlar makoni, Qoraqurum - qorsiz o`rmonsiz tog` va hakozo kabi nomlarning ma'nosini bilish geograf uchun kasbiy burch. Har bir darsda muallim hech bo`lmasa 10-15 ta geografik nomni ishlataladi, bu tomonimlarni eng muhimlarini, diqqatga sazovorlarini bilish dars samaradorligi uchun nihoyatda muhim. Nomning ma'nosи va geografik o`rni - geografiya darslariga qo`yiladigan odatiy talablar, oddiy talab esa geografiyanı qiziqarli va ommabopligrini ta'minlaydi.

Geografiya talimi jarayonida geografiyanı qiziqarli tomonini oshirish uchun ta'riflanayotgan atama termin va nomlarning ma'no mazmuni va kelib chiqishini bilishga intilish buni imkonı boricha o`qituvchi o`quvchiga etkazish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazaridan o`z o`lkasining tarixi, tabiat, boyliklarini o`rganadigan ekskursiyalar tashkil etish, tugaraklar ishini joylashtirish kabi sinfdan va maktabdan tashqari muhim ahamiyatga egaki bu tadbirlar DTS da va o`quv dasturlarida ko`zda tutilgan.

Bu borada o`lkaning toponimlarining tabiat bilan jamiyat haqidagi bilim maqsadini va axborot berishga qaratilgan. Faslni amalga oshirishni ta'lim etadi deyish mumkin. Avvalo o`z o`lkasining qolaversa faqat darslarda emas har kuni ommaviy axborot vositalarida eshitiladigan geografik nomlarning ma'nosini va atalish sababini bilish bugungi axobrotning tezkorligi davrning talabi hamdir.

Ayni paytda o`zi yashab turgan o`lka o`zi mansub bo`lgan xalq o`tmishi va qadryatlarini hurmat qilish, avlod ajdodlarning orzu-umidlari mujassam bo`lgan nomlar vatan tarixining bir bo`lagi bo`lganidan xalqning topqirligi va donishmandligini ko`rsatadigan geografik nomalar vatanga iftixon tuyg`ularini tarbiyalaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAT:

1. Даринский А.В. “Методика преподавания географии”. Москва, “Просвещение”, 1975.
2. Баратов П. Ўзбекистон табиий географияси. –Т., Ўқитувчи, 1996.
3. Топилдиев В.Р. Таълим ва тарбия жараёнларини ташкил этишнинг меъёрий-хуқуқий асослари. –Т., 2015. 164-бет.
4. G`ulomov P. Geografiyadan qisqacha ruscha-o`zbekcha atamalar va tushunchalar lug`ati. T., “Universitet”, 1993.
5. Набиходонов М.Н. Набиходонов Ж.М. Ўзбекистон географияси таълимида бадиий адабиёт материалларидан фойдаланиш (География ўқитувчилари учун методик қўлланма). Тошкент, 1998
6. Холдорова Г. Мирзачўл табиий ўлкаси ландшафтларининг ўзгаришида шамолнинг аҳамияти, Экология хабарномаси 2021 №2(233)
7. Xoldorova, G. (2021). ПРОБЛЕМЫ МОНИТОРИНГА ОКРИЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ МИРЗАЧУЛЯ. Журнал Педагогики и психологийи в современном образовании, (1). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1455>

8. Холдорова Г., Эсонов С.Э. М Сангзор хавзаси геосистемаларида тупрокларининг мелиоратив холатини картага туширишда тизимли тахлилдан фойдаланиш “Journal of Natural Sciences” №2 2021 у. <http://natscience.jspi.uz>
9. Gapparov, A., & Kholdorova, K. (2020). Population Systems In The Reclaimed Lands Of The Republic Of Uzbekistan. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
10. Abdunazarov, U., & Sabitova, N. (2020). Morphological features of buried Soils of loess formations of the prytashkent region of Uzbekistan. *Архив Научных Публикаций JSPI*
11. Хакимов, К. М., Холдорова, Г. М., & Эрматова, Н. Н. К. (2017). Принципы и основные положения номинации географических объектов. *Проблемы современной науки и образования*, (4 (86)).